

**TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV MEXANIZMINING
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

(ilmiy konferensiya uchun tezis)

Nazarov Sarvarbek Madamnjonovich

“University of Economics and Pedagogy” NOTM,

“Iqtisodiyot” kafedrası assistenti.

Tel: + 99 893 207 77 54

nsarvarbek13@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmining nazariy-metodologik asoslari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda boshqaruv tushunchasining mazmuni, klassik va zamonaviy boshqaruv nazariyalarining ta'lim sohasidagi ahamiyati, shuningdek, ta'lim muassasalarini boshqarish modellarining mohiyati ochib berilgan. Ta'lim tizimida samarali boshqaruvni ta'minlashda tizimli, ishtirokchi va kontekstual yondashuvlarning o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, boshqaruv mexanizmi, boshqaruv nazariyalari, ta'lim boshqaruvi, boshqaruv modellari, tizimli yondashuv.

Asosiy qism

XX asr va XXI asr boshlarida milliy ta'lim tizimlari globallashuv, raqobatning kuchayishi hamda innovatsion o'zgarishlar ta'sirida tubdan transformatsiyalanmoqda. Bu jarayon ta'lim muassasalari oldiga faqat ta'lim berish emas, balki yuqori sifatli, raqobatbardosh va barqaror tizimni shakllantirish vazifasini qo'yimoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimini samarali boshqarish ilmiy asoslangan mexanizmlarga tayanishni taqozo etadi. Boshqaruv nazariyalari aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda qaror qabul

qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ta'lim islohotlarini amalga oshirishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Boshqaruv keng ma'noda qarorlar qabul qilish, inson resurslarini boshqarish, moddiy va moliyaviy resurslarni taqsimlash hamda tashkilot ichidagi jarayonlarni muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi. Anri Fayol tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv jarayoni nazariyasiga ko'ra, menejment rejalashtirish, tashkil qilish, buyruq berish, muvofiqlashtirish va nazorat funksiyalaridan iborat. Ushbu funksiyalar ta'lim muassasalari faoliyatida ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish, mas'uliyat va vakolatlarni aniq belgilash hamda natijalarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda boshqaruv mexanizmi ta'lim tizimida qonunchilik, tashkiliy tuzilma, boshqaruv tamoyillari va inson omilini qamrab olgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Klassik boshqaruv nazariyalari ta'lim tizimida tartib va samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan. Frederik Teylorning ilmiy boshqaruv nazariyasi ish jarayonlarini standartlashtirish va mehnat unumdorligini oshirishga asoslanib, ta'lim sohasida o'quv va ma'muriy faoliyatni aniq reglamentlash orqali ifoda topadi. Maks Veberning byurokratik nazariyasi esa ierarxik tuzilma, qoidalarga tayanish va meritokratiya tamoyillarini ilgari suradi. Ushbu yondashuvlar ta'lim muassasalarida hisobdorlik va qonuniylikni ta'minlasa-da, inson omilini cheklangan darajada qamrab oladi.

Zamonaviy boshqaruv nazariyalari mazkur cheklovlarni bartaraf etishga qaratilgan. Insoniy munosabatlar nazariyasi ta'lim jarayonida motivatsiya, ijtimoiy muhit va psixologik omillarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ishtirokchi boshqaruv nazariyasi esa o'qituvchilar, talabalar va ota-onalarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Tizim nazariyasi ta'lim

muassasasini o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat yaxlit tizim sifatida qarab, har qanday o‘zgarishning boshqa komponentlarga ta’sirini hisobga olish zarurligini asoslaydi. Kontingent yondashuv esa ta’lim boshqaruvida universal uslub mavjud emasligini, rahbarlik uslubi muayyan vaziyat va shart-sharoitlarga moslashtirilishi lozimligini ta’kidlaydi.

Boshqaruv nazariyalari amaliyotda turli ta’lim boshqaruv modellari orqali amalga oshiriladi. Formal model markazlashgan qaror qabul qilishga, kollegial model hamkorlikka, siyosiy model manfaatlar muvozanatiga, sub’ektiv model shaxsiy qadriyatlarga, noaniqlik modeli o‘zgaruvchan muhitga moslashuvga, madaniy model esa muassasa qadriyatlari va an’analarini saqlashga tayanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarini boshqarishda mazkur modellarning birini emas, balki ularning elementlarini uyg‘unlashtirgan gibridd yondashuv eng samarali hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida boshqaruv mexanizmini shakllantirish va takomillashtirish masalasi zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Global raqobat, ta’lim xizmatlari sifatiga bo‘lgan talabning ortishi va innovatsion o‘zgarishlar ta’lim muassasalaridan faqat an’anaviy boshqaruv usullariga tayanishni emas, balki ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan, moslashuvchan va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, klassik boshqaruv nazariyalari — Fayolning boshqaruv jarayoni nazariyasi, Teylorning ilmiy boshqaruvi va Veberning byurokratik yondashuvi — ta’lim muassasalarida tashkiliy tartib, ierarxiya va hisobdorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Biroq mazkur nazariyalar ta’lim jarayonining insonparvar va ijtimoiy-psixologik jihatlarini cheklangan darajada qamrab oladi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida insoniy

munosabatlar nazariyasi, ishtirokchi boshqaruv, tizim va kontingent yondashuvlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Tizimli yondashuv ta'lim muassasasini o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida ko'rib, qabul qilinayotgan har qanday qarorning kompleks ta'sirini hisobga olish zarurligini asoslaydi. Ishtirokchi boshqaruv esa o'qituvchilar, talabalar va ota-onalarni boshqaruv jarayonlariga jalb qilish orqali mas'uliyat va qoniqish darajasini oshiradi, ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kontingent yondashuv asosida esa universal boshqaruv modeli mavjud emasligi, rahbarlik uslubi muayyan sharoit, resurslar va jamoa xususiyatlariga mos ravishda tanlanishi lozimligi aniqlanadi.

Shu bilan birga, ta'lim boshqaruvi amaliyotida formal, kollegial, siyosiy, sub'ektiv, noaniqlik va madaniy modellarning har biri muayyan vaziyatda samarali bo'lishi mumkin. Biroq zamonaviy ta'lim muassasalari faoliyatida ushbu modellarni alohida qo'llashdan ko'ra, ularning ustun jihatlarini uyg'unlashtirgan gibrid boshqaruv yondashuvi yuqori natijadorlikni ta'minlashi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Umuman olganda, ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmini takomillashtirish ilmiy-nazariy asoslar, amaliy tajriba va institutsional xususiyatlar uyg'unligiga tayanishni talab qiladi. Klassik va zamonaviy boshqaruv nazariyalarining kompleks tatbiqi, shuningdek, kontekstga mos, insonparvar va innovatsion boshqaruv modellarini joriy etish ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishi, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda ta'lim sifatini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fayol A. *General and Industrial Management*. – London: Pitman Publishing, 1949.

2. Taylor F.W. *The Principles of Scientific Management*. – New York: Harper & Brothers, 1911.
3. Weber M. *Economy and Society*. – Berkeley: University of California Press, 1978.
4. Mayo E. *The Human Problems of an Industrial Civilization*. – New York: Macmillan, 1933.
5. Bush T. *Theories of Educational Leadership and Management*. – London: Sage Publications, 2011.
6. Owens R.G., Valesky T.C. *Organizational Behavior in Education*. – Boston: Pearson Education, 2015.
7. Hoy W.K., Miskel C.G. *Educational Administration: Theory, Research, and Practice*. – New York: McGraw-Hill, 2013.
8. Teachers Institute. *Educational Management and Leadership Theories*. – Methodological materials.